


I S T E ' M O L B O Z O R I

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Andijon viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo aylanmasi 8592,4 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,0 % ga oshdi.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha tumanlarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqoriroq o'sish sur'atlari Bo'z (12,4 % ga), Asaka (7,2 % ga), Shaxrixon (6,8 % ga), Buloqboshi (6,7 % ga), Paxtaobod (6,7 % ga) tumanlarida va Xo'jaobod (6,6 % ga) tashkil etdi. Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Jalaquduq (4,2 % ga), Baliqchi (2,5 % ga) tumanlarida kuzatildi.

Tuman(shahar)larning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Andijon shahri (34,3 %), Shahrixon (12,8 %), Asaka (10,6%), Qo'rg'ontepa (8,0 %) va Baliqchi (5,4 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Shaharlar va tumanlar nomi	Ming so‘m	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Viloyat bo‘yicha:	2782,1	104,1
Andijon sh.	6 745,9	104,4
Shahrixon t.	3 744,6	104,6
Qo‘rg‘ontepa t.	3 222,4	104,0
Asaka t.	2 828,0	105,1
Baliqchi t.	2 360,2	100,6
Xo‘jaobod t.	2 166,9	104,5
Xonobod sh.	2 162,0	104,0
Paxtaobod t.	1 722,6	104,7
Andijon t.	1 717,8	103,8
Oltinko‘l t.	1 662,1	103,7
Marhamat t.	1 461,1	104,0
Buloqboshi t.	1 291,9	104,9
Bo‘z t.	1 288,0	110,3
Izboskan t.	1 262,5	102,3
Jalaquduq t.	1 220,3	102,5
Ulug‘nor t.	1 135,9	102,6

Ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 4,1 % ga oshib, 2782,1 ming so‘mni tashkil etdi (2018 yil 2384,1 ming so‘mni tashkil qilgan edi). O‘rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko‘rsatkichlari Andijon shahri (6745,9 ming so‘m), Shaxrixon (3744,6 ming so‘m) va Qo‘rg‘ontepa tumanlarida (3222,4 ming so‘m) kuzatildi.

**2019 yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo va umumiy
ovqatlanishda yirik korxonalar savdo aylanmasi**



Mln.so‘m


**O‘tgan yilning shu
davriga nisbatan, foizda**

Viloyat bo‘yicha:	1093946,7	132,6
Bo‘z t.	9 838,7	4 307,8
Oltinko‘l t.	14 590,6	467,2
Asaka t.	88 788,6	429,9
Xo‘jaobod t.	4 405,7	153,0
Xonobod sh.	5 402,3	151,1
Andijon sh.	860 061,4	131,2
Qo‘rg‘ontepa t.	8 444,8	124,4
Buloqboshi t.	4 673,1	108,9
Andijon t.	32 306,7	104,4
Baliqchi t.	12 592,8	94,3
Jalaquduq t.	4 931,3	92,5
Marhamat t.	6 240,2	91,6
Ulug‘nor t.	230,7	86,9
Paxtaobod t.	8 561,7	70,0
Shahrixon t.	27 302,2	69,6
Izboskan t.	5 575,9	28,0

KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlik (бизнес) sub'ektlarining tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,0 % ga o'sdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 87,3 % ini tashkil qildi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari umumiy tovar aylanmasi hajmining 4786,3 mlrd.so'mini yakka tartibdagi tadbirkorlar tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning ulushi (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes)ning eng katta ulushi Ulug'nor - 99,7 %, Qo'rg'ontepa - 98,8 %, Xo'jaobod - 98,1 %, Izboskan - 98,1 % va Jalaquduq - 97,8 % tumanlarida. Eng past ulush Andijon shahar - 70,8 %, Bo'z - 89,2 % va Asaka tumanlarida - 90,2 % qayd etildi.

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2019 yil yanvar-sentabr oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 1944,2 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 104,4 % ni tashkil qildi. Ulgurji savdo tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan Xonobod shahar 21,3 %, Xo'jaobod 95,9 % va Izboskan tumanlarida 96,0 % ga kamayish kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 3,1 % ga o'sdi va 1317,7 mlrd. so'mga yetdi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 67,8 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining ulgurji savdodagi ulushi, (foizda)



**2019 yil yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdoda yirik
korxonalar savdo aylanmasi**

	Mln. soʻmda	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Viloyat boʻyicha:	626440,9	107,4
Qoʻrgʻontepa t.	79 856,2	166,5
Andijon t.	124,0	160,7
Andijon sh.	529 760,8	102,6
Paxtaobod t.	190,2	84,2
Shahrixon t.	9 202,0	71,3
Baliqchi t.	150,1	70,9
Boʻz t.	62,0	48,5
Ulugʻnor t.	72,9	48,5
Jalaquduq t.	90,4	48,0
Marhamat t.	96,4	42,2
Oltinkoʻl t.	97,6	39,0
Xoʻjaobod t.	107,5	25,7
Izboskan t.	215,5	4,1
Asaka t.	6 415,3	-
Xonobod sh.	-	-
Buloqboshi t.	-	-

2019 yil yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo aylanmasining oʻtgan yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʼati yuqori boʻlgan yirik korxonalar Qoʻrgontepa tumani (166,5 %), Andijon tumani (160,7 %) va Andijon shahar (102,6 %) ni tashkil etdi. Xonobod shahar va Buloqbosh tumanlarida ulgurji savdo bilan shugʻullanuvchi yirik korxona faoliyati bolʻmagan.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining savdo aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda



2019 yil yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan mikrofirmalarning savdo aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda




2019 yil yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan kichik korxonlarning savdo aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda



2019 yil yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yakka tartibdagi tadbirkorlarning savdo aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda



2019 yil yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik korxonalar savdosi



2019 yil yanvar-sentabr oylarida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi bo'yicha yirik korxonalar faqatgina Andijon shahar (3130,7 mln.so'm) va Andijon tuman (2990,6 mln.so'm) larida mavjud bo'lib, jami o'tgan yilga nisbatan 78,5 % ni tashkil etdi. Jamiga nisbatan ulushi 6,3 foizni tashkil qildi.

Andijon viloyat Statistika boshqarmasi
“Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi” bo‘limi

Tel.: (71) 230 – 82 – 53